


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN CHET (INGLIZ, FRANSUZ, NEMIS) TILI
FANIDAN IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

(ta'lism yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Tuzuvchilar:

O‘zMU “Ingliz filologiyasi” kafedrasi mudiri,
f.f.d., prof v.b. Djumabaeva J.
O‘zMU “Qiyosiy tilshunoslik” kafedrasi mudiri
f.f.n., dots. Sadullaeva N.
O‘zMU “Nemis filologiyasi” kafedrasi mudiri,
f.f.n., prof. Imyaminova Sh.

Taqrizchilar:

O‘zMU “Qiyosiy tilshunoslik” kafedrasi f.f.d.
prof. Siddikova I.
“Fransuz filologiyasi” kafedrasi mudiri,
f.f.n. Jafarova D.

Mazkur dastur Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil dagi -sonli bayonnomasi bilan
ma’qullangan.

KIRISH

Ushbu dastur **ingliz**, **nemis** va **fransuz** tillaridan imtihon asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kiruvchi abituriyentlarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda abituriyentlarning chet tilidan bilimlari aniqlanadi.

Dasturda keltirilgan talablar abituriyentlarning xorijiy tilda bilimlarini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Fanning maqsadi va vazifasi

Dasturning maqsadi

- abituriyentlarning ingliz, fransuz va nemis tili fanlaridan bilim darajasini aniqlash;

Dasturning vazifasi

- abituriyentlarning chet tilida bilimlarini *Grammatik test* orqali aniqlash.

Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar

Grammatika

Gaplarda so‘z tartibi, gaplarning maqsadiga ko‘ra turlarini bilish muhim ahamiyat kasb qiladi. Bundan tashqari abituriyentlar quyidagi grammatik xodisalarini bilishi kerak:

Mustaqil so‘z turkumlari:

Ot – otlarda son kategoriyasi, otlarning ko‘plik yasalish formalari va ularning turlanishi;

Sifat – sifat darajalari, sifatlarning yasalishi, sifatlarning otlashishi va ularning turlanilishi;

Son – sanoq va tartib sonlarning yasalishi va qo‘llanilishi. Sonlarning otlashishi;

Olmosh – olmosh va ularning turlari. Olmoshlarning kelishiklarda qo‘llanilishi va ularning gapdagi sintaktik vazifasi;

Fe’l – o‘timli va o‘timsiz fe’llar. Fe’llarning yasalishi. Fe’llarning tuslanishi. Fe’l nisbatlari. Mayl kategoriyasi. Fe’l zamonlari;

Ravish va ularning turlari, yasalishi;

Yordamchi so‘z turkumlari – ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va ularning ma’no va tuzilish jihatdan turlari;

Modal so‘zlar – undov so‘zlar, tasdiq va inkor so‘zlar;

Sintaksis – Gap. Gap bo‘laklari. Bog‘lovchilar va ularning turlari. Uyushiq bo‘lakli gaplar. Ajratilgan bo‘laklar. Gapning tuzilishi jihatdan turlari;

Qo‘shma gaplar – Ergash gapli qo‘shma gap va ularning turlari.

IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH M E Z O N I

Imtihon ballik baholash tizimida baholanadi.

Kirish imtihonlari *test sinovlari* shaklida o'tkaziladi va 30 tadan test savollari kiritiladi. Agar fanlar majmuasida ushbu fan asosiy 1-fan sifatida kiritilgan bo'lsa, har bir to'g'ri javob uchun 3,1 balldan, maksimal 93 ballni, agar ushbu fan 2-fan sifatida kiritilgan bo'lsa har bir to'g'ri javob uchun 2,1 balldan, maksimal 63 ballni tashkil etadi.

2024-2025 o'quv yili uchun test sinovlari shaklida o'tkaziladigan imtihonlar komp'yuterda maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish talablari

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Imtihon komissiyasi faoliyati 2024-2025 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi;
- Xorijiy til fanidan imtihon komissiyasi tarkibi 3 nafar a'zodan kam bo'lмаган holda tashkil etiladi;
- Imtihon natijalari 3 kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi;
- Imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish talablari

Appelyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

- Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga *yozma shaklda* murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

- Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.